



MECHANISMS FOR CONSIDERING PUBLIC OPINION IN THE PROCESS OF ADOPTING NORMATIVE LEGAL ACTS

Sora Jumayeva

*Student of the Faculty of Law, Termez State University
Termez, Uzbekistan*

Sayqalbek Allayorov

*Lecturer of the Department of Criminal Law and Civil Procedure
Termez State University
E-mail: hayrinisojumaqulova85@gmail.com
Termez, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Public consultation, normative legal acts, citizen participation, Better Regulation, Regulatory Impact Assessment (RIA), regulation.adliya.uz, stakeholder engagement, law-making process, public opinion.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article examines the legal foundations and practical mechanisms for considering public opinion in the drafting and adoption of normative legal acts. Based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Law “On Normative Legal Acts,” the role of public consultations in the law-making process is analyzed. The study also provides a comparative analysis of the experiences of the OECD and Canada and evaluates the effectiveness of the regulation.adliya.uz portal. The findings suggest the introduction of a “Response to Comments” mechanism aimed at increasing transparency in the consideration of public proposals and strengthening public participation in law-making activities.

NORMATIV - HUQUQIY HUIJATLARNI QABUL QILISH JARAYONIDA JAMOATCHILIK FIKRINI INOBATGA OLIH MEXANIZMLARI

Sora Jumayeva

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi
Termiz, O'zbekiston*

Sayqalbek Alloyorov

Termiz davlat universiteti “Jinoyat huquqi va

Fuqarolik protsessi” kafedrasida o’qituvchisi
 E-mail: hayrinisojumaqulova85@gmail.com
 Termiz, O’zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so’zlar: Jamoatchilik muhokamasi, normativ-huquqiy hujjatlar, “Normativ – huquqiy hujjatlar to’g’risida“ gi Qonun, fuqarolar ishtiroki, xalqaro taqqosiy tahlil, OECD Better Regulation, RIA, regulation.adliya.uz, jamoatchilik fikri.

Annotatsiya: Ushbu maqola normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini qabul qilishda jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmlarining huquqiy asoslari, amaliyot va samaradorligini chuqur tahlil qiladi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Normativ-huquqiy hujjatlar to’g’risida”gi Qonuni va regulation.adliya.uz portaliga asoslanib milliy tajribalar ko’rib chiqiladi. OECD, AQSh APA, Yevropa Ittifoqi va OSCE/ODIHR tajribalari bilan taqqoslash orqali bo’shliqlar ko’rib chiqiladi va ularning o’xshash va farqli jihatlari o’rganilib, ochib beriladi.

МЕХАНИЗМЫ УЧЕТА ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ

Сора Джумаева

Студентка

*Юридического факультета Термезского государственного университета
 Термез, Узбекистан*

Сайкалбек Алляров

Преподаватель кафедры «Уголовное право и гражданский процесс»

Термезского государственного университета

E-mail: hayrinisojumaqulova85@gmail.com

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общественное обсуждение, нормативно-правовые акты, участие граждан, Better Regulation, оценка регулирующего воздействия (RIA), regulation.adliya.uz, stakeholder engagement, правотворчество, общественное мнение.

Аннотация: В данной статье анализируются правовые основы и практика учета общественного мнения в процессе разработки и принятия проектов нормативно-правовых актов. На основе Конституции Республики Узбекистан и Закона «О нормативно-правовых актах» раскрывается значение института общественного обсуждения в правотворческой деятельности. Кроме того, проведен сравнительно-правовой анализ с опытом ОЭСР и Канады, а также дана оценка деятельности портала regulation.adliya.uz. По результатам

исследования предлагается внедрение механизма «Response to Comments», направленного на повышение прозрачности рассмотрения предложений граждан и расширение участия общественности в процессе правотворчества.

Kirish. Zamonaviy huquqiy davlat qurishning asosiy tamoyillaridan biri – normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish jarayonida fuqarolar va jamiyatning faol ishtirokini ta'minlashdir. Bu nafaqat qonunlarning ochiqligi va shaffofligini oshiradi, balki ularning xalq manfaatlariga mosligini, qonun ustuvorligini mustahkamlash va ijtimoiy konsensusni shakllantirish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilgi yangi tahririda bu tamoyillar yanada aniq mustahkamlandi va shu bilan birga 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai" deb belgilasa, 9-moddasida "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi" degan norma bilan fuqarolar fikrini inobatga olishning konstitutsiyaviy asosini yaratdi. Ushbu o'zgartirishlar xalq tomonidan referendum orqali qabul qilinganligi bilan ahamiyatli bo'lib, Konstitutsiyani chinakam "xalq Konstitutsiyasi"ga aylantirdi .

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun va regulation.adliya.uz portalining joriy etilishi bu tamoyillarni amaliy mexanizmga aylantirdi. Portal orqali loyihalar ochiq muhokamaga qo'yiladi, fuqarolar takliflari majburiy hisobga olinadi. Masalan, 2026-yil mart holatiga portalda 1115 loyiha muhokamasi o'tkazilgan, shundan 1087 tasi yakunlangan va 28 tasi davom etmoqda . Joriy yilda esa 157 ta loyiha muhokamaga qo'yilgan. Bu raqamlar 2018-yildan beri joriy etilgan elektron portalning fuqarolar ishtirokini sezilarli oshirganini ko'rsatadi. Asosan tadbirkorlik faoliyati, ekologiya, fuqarolik erkinliklari va ijtimoiy sohalarga oid loyihalar muhokamaga qo'yilmoqda . Asosiy hujjat "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-682-son, 20.04.2021 yil) hisoblanadi. Qonunning 24-moddasiga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat loyihagini ishlab chiquvchi organ uni qabul qiluvchi organga kiritishdan oldin majburiy ravishda regulation.adliya.uz portaliga joylashtirishi shart. Muhokama muddati kamida 15 kalendar kun bo'lishi lozim. Kelib tushgan takliflar, fikr-mulohazalar va mulohazalar majburiy hisobga olinadi; rad etilgan takliflar bo'yicha asoslantirilgan javob berilishi talab etiladi .

Xalqaro miqyosda bunday jarayonlar "better regulation" tamoyillari doirasida rivojlanmoqda. Better Regulation tamoyillari o'zi nima? Bu tamoyil normativ-huquqiy hujjatlar, qonun va qoidalarni ishlab chiqish, qabul qilish, baholash va takomillashtirish jarayonini yaxshilashga qaratilgan xalqaro standartlar to'plami. Ular asosan OECD va Yevropa Ittifoqi

tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, qonunlarning sifatini oshirish, ortiqcha byurokratiya va yuklamalarni kamaytirish, ochiqlikni ta’minlash va dalillarga asoslangan siyosatni rivojlantirishni maqsad qiladi. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, a’zo mamlakatlarning 82% ida stakeholder engagement majburiy, yani bu nima? Stakeholder engagement (jamoatchilik va manfaatdor tomonlar ishtiroki) bu Better Regulationning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu tamoyil fuqarolar, biznes, fuqarolik jamiyati va ekspertlarning fikrini majburiy va ochiq tarzda inobatga olish. Bu tamoyilning markaziy qismi bo‘lib, takliflarning ochiqligi, rad etish asoslari va feedback mexanizmlarini talab qiladi. O‘zbekistonning “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va islohotlar dasturlari doirasida jamoatchilik fikrini inobatga olish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda qisqa muhokama muddatlari, RIA (Tartibga solish ta’sirini baholash) ning to‘liq majburiy emasligi va natijalar ochiqligining cheklanganligi kabi bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolar qonunlarning samaradorligini va fuqarolar ishonchini pasaytirishi mumkin. RIA mexanizmi davlatimizda ham 2020-yildan bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Prezidentning PP-5025-sonli qarori (15.03.2021) va keyingi hujjatlar bilan Adliya vazirligi huzurida RIA tizimini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan. Hozirgi vaqtda RIA ba’zi muhim hujjatlar (tadbirkorlik, ekologik va fuqarolik erkinliklariga ta’sir etuvchi) uchun majburiy bo‘lsa-da, barcha normativ aktlar uchun to‘liq majburiy emas. RIA jarayonida jamoatchilik muhokamasi natijalari hisobotga kiritilishi ko‘zda tutilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmlari xalqaro miqyosda Better Regulation tamoyillari doirasida rivojlanmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik fikrini inobatga olish mexanizmlari bo‘yicha dunyoda eng ilg‘or tajribalardan biri Kanadada amalga oshirilgan. OECD Regulatory Policy Outlook 2025 hisobotida Kanada konsultatsiyalarni joriy etgan mamlakat sifatida alohida ta’kidlangan. Bu tajriba O‘zbekistonning regulation.adliya.uz portalidan ancha oldinda bo‘lib, quyidagi asosiy ustunliklarga ega hisoblanadi. Kanada federal hukumati normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini qabul qilishda Canada Gazette platformasi ishlab chiqilgan va u orqali barcha taklif etilgan hujjatlarni majburiy ochiq muhokamaga qo‘yadi. Bu jarayonda har bir loyiha uchun odatda 30–60 kun ba’zan undan ham uzoq vaqt ochiq izoh berish muddati belgilanadi. Bu muddat loyihaning murakkabligiga qarab o‘zgartirilishi mumkin. Masalan, ekologik yoki ijtimoiy ta’siri yuqori bo‘lgan hujjatlar uchun muddat uzaytiriladi. Barcha konsultatsiyalar bir joyda jamlanadi. Fuqarolar, biznes, fuqarolik jamiyati va hatto mahalliy xalqla to‘g‘ridan-to‘g‘ri izoh qoldirishi, savollar berishi mumkin. Portal orqali livestream, transkriptlar va oldingi muhokamalar yozuvlari ham mavjud. Har bir muhokama yakunida davlat organi barcha muhim takliflarni ko‘rib chiqib, ularni qanday inobatga olgani yoki rad etgani haqida ochiq va

batafsil tushuntirish berishi shart. Bu javoblar ochiq e'lon qilinadi. Bu mexanizm fuqarolarga o'z takliflari lo'rib chiqilganini ko'rsatadi va kelgusidagi ishtirokni rag'batlantiradi. Har bir muhim loyiha uchun RIA majburiy o'tkaziladi. Unda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, gender va xalqlar ta'sirlari batafsil baholanadi. Jamoatchilik muhokamasi natijalari RIA hisobotiga majburiy kiritiladi. Bu jarayon "evidence-based" (dalillarga asoslangan) siyosatni ta'minlaydi. Kanada nafaqat onlayn, balki offline muhokamalar, maxsus mahalliy xalqlar uchun madaniy moslashtirilgan konsultatsiyalar va nogironlar uchun qo'shimcha vositalarni qo'llaydi. Bu dunyoda noyob vosita bo'lib, davlat organlarining jamoatchilik ishtirokini tashkiliy va loyiha darajasida baholaydi. Model besh asosiy tamoyilga asoslanadi, bular ochiqlik, inkluzivlik, ta'sirchanlik, shaffoflik va doimiy takomillashtirishdir.

O'zbekistonning regulation.adliya.uz portali 2018-yildan beri muhim qadam bo'lsa-da, Kanada tajribasiga nisbatan hali yaxshi takomillashtirilmagan. Shu sababdan "Response to Comments" ochiq bo'limini regulation.adliya.uz ga qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Response to Comments" (takliflarga javoblar bo'limi) — bu normativ-huquqiy hujjat loyihasi muhokamasi yakunlangandan keyin portalda ochiq e'lon qilinadigan maxsus bo'lim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda regulation.adliya.uz portalida loyihalar ochiq muhokamaga qo'yiladi va fuqarolar taklif berishi mumkin. Biroq, takliflarning taqdiri haqida ochiq va tushunarli ma'lumot yetarli emas. Fuqarolar o'z takliflari "eshitilganmi" yoki "nima uchun rad etilgan"ligini ko'ra olmaydi. Bu holat ishtirokchanlikni pasaytiradi, fuqarolarda "fikrimiz kerak emas" degan tuyg'u uyg'otadi va ishonchsizlikni kuchaytiradi.

"Response to Comments" bo'limi bu muammoni hal qiladi. U fuqarolarga o'z ovozi hisobga olinganini ko'rsatib, kelgusidagi ishtirokni rag'batlantiradi. Bu mexanizm xalqaro tajribada eng muvaffaqiyatli amaliyotlardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda regulation.adliya.uz portalida loyihalar ochiq muhokamaga qo'yiladi va fuqarolar taklif berishi mumkin. "Response to Comments" ochiq bo'limini regulation.adliya.uz ga qo'shish — oddiy texnik o'zgartirish emas, balki jamoatchilik muhokamasi mexanizmini yanada samarali va ishonchli qiladigan muhim qadam. Bu fuqarolarga "mening fikrim muhim" degan tuyg'u beradi, davlat organlarini yanada mas'uliyatli qiladi va oxir-oqibatda xalq manfaatlariga mos, sifatli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda jamoatchilik fikrini inobatga olish — bu nafaqat huquqiy, balki demokratik va ijtimoiy barqarorlik masalasidir. O'zbekistonning portal va qonun mexanizmlari muhim qadam bo'lsa-da, xalqaro standartlar bilan to'liq moslashishi kerak. Taklif etilgan o'zgartirishlar amalga oshirilsa, qonun ijodkorligi ochiq, samarali va xalq manfaatlariga mos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023)
2. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-682, 2021).
3. OECD (2025). Regulatory Policy Outlook 2025. DOI: 10.1787/56b60e39-en.
4. Canada Gazette va Consulting with Canadians rasmiy portal ma'lumotlari (2025–2026).
5. Treasury Board of Canada Secretariat. Maturity Model for Public participation (2025)
6. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-regulatory-policy-outlook-2025_56b60e39-en/full-report/canada_8bfee2cb.html
7. <https://regulation.adliya.uz/project/9040/26808?contentLang=uz>
8. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/04/oecd-regulatory-policy-outlook-2025_a754bf4c/56b60e39-en.pdf
9. <https://obamawhitehouse.archives.gov/sites/default/files/omb/oira/irc/OECD-Guiding-Principles-for-Regulatory-Quality-and-Performance.pdf>
10. <https://lex.uz/docs/-6445145>
11. <https://www.oecd.org/>
12. <https://lex.uz/docs/-5378966>.